

THE FEATURES OF PHRASEOLOGICAL SYNONYMIC ROWS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Gulbar Rizokulovna Sanoyeva
Alfraganus University

Abstract

This article supplies us with the data about figurative, stylistic coloring of phraseological synonymic rows of English and Uzbek languages.

Keywords: Phrase, synonymic rows, lexical, language, meaning, a word.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK SINONIMIK QATORLARNING XUSUSIYATLARI

Gulbar Rizokulovna Sanoyeva
Alfraganus University

Annotatsiya

Ushbu maqola bizga ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik sinonimik qatorlarini obrazli, uslubiy rang berish haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Fraza, sinonimik qatorlar, leksik, til, ma’no, so‘z.

Sinonim iboralar tasviriylik, obrazlilik, stilistik bo‘yoqdorlik hodisalarining har biri bo‘yicha o‘rganib chiqilsa, bunday iboralarning ko‘pchiligida stilistik bo‘yoq bo‘rtib turmasligini, ular stilistik bo‘yog‘i jihatidan neytral holatga yaqin turishini aniqlash mumkin. Agar bunday ibora unga sinonim so‘z bilan qiyoslansa, har holda iboraning stilistik bo‘yog‘i kuchli bo‘ladi.. Odatda sinonimiya bittadan ortiq, ya’ni ikki, uch, to‘rt va ko‘p til birligining o‘zaro ma’no munosabati asosida tug‘iladi. Bunday munosabatda qatnashuvchi birliklarning miqdorini chegaralab, belgilab qo‘yish mumkin emas va bu til birliklari o‘z ichida muntazam bir tizimni tashkil etadi. Demak, sinonimiya munosabatida kamida ikkita til birligi qatnashadi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatan sinonim bo‘ladi, barchasi birgalikda sinonimik qatorni tashkil kiladi. Frazeologik sinonimiya tilning qay darajada boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi til hodisalardan biridir. Sinonimiya vositasida nozik ma’no qirralarini anglatishga, rang-barang stilistik bo‘yoqlarni ifodalashga erishiladi. Sinonimlardan birini tanlab, ishlatish bilan voqelikning bir qirrasini bo‘rtadi. Aslida sinonimiya tug‘ilishi uchun lug‘aviy birliklar (shuningdek, grammatik birliklar ham) o‘zaro ma’lum tenglikka, bir xillikkagina emas, balki farqlanishlarga ham ega bo‘lishi lozim. So‘z yoki iborani tanlab ishlatishda har gal ana shu farqlanishlarni nazarda tutishga to‘g‘ri keladi. Muayyan fikr yoki munosabatni bildirishda sinonimik qatordan yagona, eng muvofiq so‘z yoki iborani tanlab ola bilish talab etiladi.



Sinonimlardan nutqni ravon tuzishda, takrordan qochishda, shuningdek, tovush (talaffuz) noqulayliklarini bartaraf qilishda unumli foydalaniladi. Frazologik sinonimlarni turli nuqtai nazardan o'rganib baholash mumkin. Sh. Raxmatullaev o'zbek tilida quyidagi frazeologik sinonimlarning belgilarini farqlaydi:

1. Frazologik sinonimlarning leksik tarkibi.
2. Frazologik sinonimlar asosida yotgan obraz.
3. Frazologik sinonimlarning ma'noda farqlanishi.

H. L.Kameneskayte ingliz tilidagi sinonimik FBlarning maxsus lug'atini tuzgan. Bu lug'atda berilgan FBlar o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub bo'lib, ular bir xil umumiy ma'noga ega, lekin ular stilistik jihatdan bo'yoqdorligi yoki ma'no qirrasini bilan farqlanadi. Unda sinonimik qatorning bosh sinonimik iborasi ajratilib ko'rsatilgan va o'sha bosh sinonim sinonimik qatorning dominantini hisoblanadi. Masalan:

Change one's mind

- 1) change one's mind
- 2) think better of it

FBlar orasida ham o'zaro sinonimik aloqalarga kirishadigan sinonimik qatorlar mavjud. Bu sinonimik qatorlardan ajratib ko'rsatilgan birliklar umumiy ma'noga, ya'ni keng ma'noga ega bo'lgan birliklardir. Shunday kilib, sinonimik qatordagi xar bir iboraning ma'nosini misollar yordamida ochib berishga harakat qilindi:

A month of Sundays

A very long time — juda uzoq vaqt

- 1) donkey's years;
- 2) a month of Sundays;
- 3) till the cows come home.

1. A month of Sundays - hazil, ya'ni og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora.

«Juda uzoq vaqt». Boshqa iboralarga nisbatan umumiy ma'noni bildiradi.

One little humour about your being a crank would do more to ruin this business than all the plots and stuff that these fool story-writers could think up in a month of Sundays.

2. Donkey's years -sleng, cheksiz uzoq vaqt, bir umr, noma'lum uzoq vaqt: I haven't seen her for donkey's years. I'd like to see her again and have a chat about old days. [Maugham]

Those old men, Mr. Keidy says, have been there for donkey's years.

3. Till the cows come home - og'zaki nutqqa xos, cheksiz uzoq vaqt, cheksizlikkacha, bir umrga.

Bu ibora XVII-XVIII asrlarda Angliyada keng yoyilgan bo'lib, keyin esdan chiqarilib ketgan. Lekin AQShda saqlanib qolgan:

1. Steady Larry! Steady boy! I'm here I'm with you till the cows come home.
2. I've got to go now". She insisted. If you like to wait I'll meet you...about quarter past seven. "Wait? I'd wait for you till the cows come home".

Ushbu sinonimik qatorda "A month of Sundays" iborasi dominant bo'lib kelmoqda. Sinonimiya uyasidagi bosh so'z yoki iboraga dominant deyiladi. (lotincha dominantis - hukmron).



"A month of Sundays" iborasi yuqoridagi misolda ko'rinib turganidek, boshqa iboralarga nisbatan umumiyroq ma'noni anglatmoqda. O'zbek tilida esa, ushbu iboraning aynan tarjimai jihatidan ekvivalenti bo'lmasada, ma'nosi nuqtai nazaridan mos keladigan variantlari mavjud: Tuyaning dumi yerga tekkanda - (hech qachon, juda uzoq vaqt)

- 1) qizil qor yoqqanda;
- 2) tuyaning dumi yerga tekkanda;
- 3) xo'kiz tuqqanda;

1)Tuyaning dumi yerga tekkanda(etganda) - Bizga ma'lumki,tuya bir yoki ikki o'rkachli, yirik sut emizuvchi ish hayvoni (O'zbek til. izoh.lug'.1981.2-jild. b.240). Tuyaning yirik hayvon bo'lishiga qaramay dumining kaltaligi va hech qachon yerga tegmasligi ushbu iborada asos bo'lib kelgan va yuqoridagi ibora ro'yobga chiqmaydigan va'da, ish kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu ibora boshqa iboralar ichida umumiy ma'noga ega va sinonimik qatorida dominanta hisoblanadi:

Hasan so'fi : - "Suv chiqadi-yu, lekigin boyga yarasha chiqadi. Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganda tegadi",-dedi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o.

1. Qizil qor yoqqanda -(hech qachon) og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora, ya'ni so'zlashuvda ko'proq yumor maqsadida qo'llaniladi.
2. Xo'kiz tuqqanda - og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora, noma'lum uzoq vaqt yoki hech qachon kabi ma'nolarni anglatadi.

Ingliz tilidagi navbatdagi sinonimik iboralar:

Be hard up

To be in want of money – pulga muhtoj bo'lmok

1. Be as poor as a church mouse (rat).
2. Be as poor as Job's turkey.
3. Be hard up.

1. Be as poor as a church mouse (rat) - kambag'al bo'lmoq, cherkov sichqonlari kabi kambag'al bo'lmok, Amerika variantida og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora :

"They haven't anything, have they?", "No", returned Jessica, "they're poor as church mice".

2. Be as poor as Job's turkey - ulov kabi kambag'al bo'lmok, Bibliyadagi "The Book of Job"dan olingan bo'lib, Avstraliyada ishlatiladigan og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora. Misollar:

The Dalmatians... were miserable immigrants -poorer than Job's turkey. [London]

Widow of a scotch peer and as poor as Job's turkey... [Galsworthy]

3. Be hard up - og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora bo'lib, juda ham pulga muhtoj bo'lmok, "og'ir kunga tushmok" ma'nosiga egadir.

Oh, but we may go to the theatre, you see, Mother, and I think I ought to stand the tickets; he's always hard up: you know. [Galsworthy]

Yuqoridagi misollarimizdan ko'rinib turibdiki, "be hard up" iborasi dominanta bo'lib hisoblanmokda, chunki uning o'zi bir tiyinsiz qolmok, bankrot bo'lmoq, qiyinchilikning oxiriga yetib bormoq, xonavayron bo'lmoq, og'ir ahvolda qolmok kabi ma'nolarni bildiradi.

O'zbek tilida bu iboraning ma'nodoshlari sifatida quyidagi iboralarni berishimiz mumkin:

1. sichqonlar xassa tayanganda;
2. po'stakning yirtig'i ham yo'q;



1) sichqonlar xassa tayanganda- og'zaki nutqqa xos bo'lib, bu ibora "juda ham tang holatda bo'lmok", "og'ir ahvolga tushmoq" ma'nosiga egadir ya'ni "tinimsiz harakada bo'lgan sichqonning ham kuni xassaga qolganda".

2) po'stakning yirtig'i ham yo'q- hech vaqosiz qolmoq, kambag'allik, nochorlik, bir tiyinsiz qolmoq, tang holatda bo'lmok, og'ir ahvolga tushmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Po'stak atamasi ko'proq sharq mamlakatlariga xos bo'lib, o'siq junli oshlangan teridan iborat to'shakdir (O'zbek til. izoh.lug'.1981.1-jild. b.609). Qadimda po'stakdan to'shak va issiq libos sifatida foydalanilgan. Ushbu atamaning iborada kelishi millatning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Ona – bola Uchqunning yoniga kelib o'tirdilar va g'arib kulbada po'stakning yirtig'i ham yo'qligiga amin bo'ldilar.

Yukoridagi misollarimizdan ko'rinib turibdiki, " po'stakning yirtig'i ham yo'q " iborasi dominanta bo'lib hisoblanmokda, chunki uning o'zi har ikki sinonim iboralar ifodalaydigan ma'nolarni anglatib kelmoqda.

Be one's own enemy

Act contrary to one's own interests - o'ziga o'zi yomonlikni ravo ko'rmoq.

1. Cook one's own goose.
2. Kill the goose that laid the golden egg.
3. Be one's own enemy.

1. Cook one's own goose - og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora - "o'zini o'zi yo'q qilmok, o'z hayotini o'zi yo'q qilmoq" kabi ma'nolarni anglatadi.

"Look at this, Helen. They say Max de Winter murdered his first wife. I always did think there was something peculiar about him. I warned that fool of a girl she was making a mistake, but she wouldn't listen to me. Well, she's cooked her goose now all right".[Galsworthy

2. Kill the goose that laid golden egg- shaxsiy yutuq keltiruvchi manbani yo'q qilmok, o'zi turgan shoxni kesmok.

Why you 'see there's five or six masters who have set themselves again paying wages they have been paying these two ears past... And now they come to us and say we're to take less. And we won't. We'll just... see who, will work for them. They'll have killed the goose that laid them the golden eggs, I reckon. [Galsworthy]

3. Be one's own enemy- keng ma'noda qo'llaniladigan ibora - "o'ziga o'zi dushman bo'lmoq, o'ziga o'zi yomonlikni ravo ko'rmoq, o'ziga foyda keltiruvchi maskanni yo'q qilmoq" kabi ma'nolari bor. Ushbu ibora boshqa iboralar ichida umumiy ma'noga ega va sinonimik qatorda dominanta hisoblanadi:

Ne is his own worst enemy, you know... We all like a drop to drink, but I fancy that he takes more than most of us.

O'zbek tilida ham, ushbu iboralarga aynan ekvivalent bo'lmasada, ma'nosi mos keladigan variantlari mavjud:

O'zi turgan shoxni kesmoq iborasi keng ma'noda qo'llaniladigan ibora bo'lib, quyidagi sinonimik qatorning dominantasi hisoblanadi

1. Burgaga achchiq qilib, ko'rpa o't qo'ymoq; (Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirmoq)
2. O'zini chohga tashlamoq;



3. O‘zi turgan shoxni o‘zi kesmoq;

1) Burgaga achchiq qilib, ko‘rpaqa o‘t qo‘ymoq- kimdir arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ishni qilib qo‘ymoq.

O‘z jiyaningiz kuyganidan gapirgandir... Burga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirish yaxshimas. H. Nazir. Quruq yog‘och ham egiladi. Men ham uyimga borib yotib oldim... Burgaga achchiq qilib, ko‘rpaqa o‘t qo‘ygan ekanman. Endi tushundim. I.Rahim. Ixlos.(Sh. Rahmatullaev.1992.b.54)

2) O‘zini chohga tashlamoq - o‘ziga o‘zi yomonlikni ravo ko‘rmoq, o‘ziga o‘zi dushman bo‘lmoq;

4. O‘zi turgan shoxni o‘zi kesmoq- og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora - “o‘zini o‘zi yo‘q qilmok, o‘z hayotini o‘zi yo‘q qilmoq” kabi ma‘nolarni anglatadi.

Yuqorida tahlil qilingan har ikki til (ingliz va o‘zbek tili) dagi ifodalangan iboralarda xalqlarning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari keng aks etgan. Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘rib chiqilgan iboralarning aynan bir-biriga ekvivalenti bo‘lmasada, ma‘nosi jihatidan yaqinligiga guvoh bo‘ldik. Berilgan iboralarda millatning milliyligini ifodalovchi so‘zlar qo‘llanilgan: Be as poor as a church mouse iborasidagi church , Kill the goose that laid golden egg iborasidagi golden egg, po‘stakning yirtig‘i ham yo‘q iborasidagi po‘stak, tuyaning dumi yerga tekkanda iborasidagi tuya kabi so‘zlari zamirida millat madaniyati va tarixi yotadi.

Xulosa tarzida shuni ko‘rsatish kerakki, FB larning sinonimik qatorlari a‘zolari bir-birlaridan stilistik jihatdan, voqelik yoki hodisaning har xil jihatlarini ifoda qilishida, emotsional-ekspressivliklari bilan yoki ular asosida yotgan obrazlilik jihatlarini bilan bir-biridan farq qiladi va nutqimizni boy, ta‘sirli va rang-barang qilishga yordam beradi

REFERENCES:

1. Kadirova, Z. Z. (2024). Alisher Navoiy Nasriy asarlaridagi perifrazalarning morfologik xususiyatlari. *Philological research: language, literature, education*, 3(3), 38-42.
2. Kadyrova, Z. Z. (2024). The Uzbek language corpus and the practical significance of forming the base of philological terms in it. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 3(131), 98-100.
3. Kadirova, Z. Z. (2021). Shukur Xolmirzayev asarlarida metaforalar. *Konferensiya*, 1(1), 179-185.
4. Кади́рова, З. З. (2017). Из истории о порядке морфем в узбекском языке. *Актуальные вызовы современной науки*, 1(1), 16-20.
5. Кади́рова, З. З. (2017). Ҳадис ва тарбия. Буюк муҳаддис Абу Исо Термизий ва Термизийларнинг бой илмий-маънавий меросини ўрганиш, 1(1), 9-12.
6. Кади́рова, З. З. (2017). Лингвопоэтика асослари бўйича мулоҳазалар. Филология фанларининг долзарб масалалари” номли республика илмий-назарий конференци, 1(1), 3-8.
7. Shermetova, S. T. (2024). Psychological and pedagogical foundations of the organization oriented education. *European Science Methodical Journal*, 2(6), 566-570.
8. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(4), 56-64.



9. Фаизова, Ф. Ш. (2022). Статейные списки российских посланников в Среднюю Азию XVII в. как лингвистический источник (Doctoral dissertation, автореф. дис.... д-ра филос.(PhD) по филол. наукам. Ташкент).
10. Рогозинникова, Н. Г., & Третьякова, Е. Ю. (2022). Русское языкознание в Национальном университете Узбекистана: история, традиции, наследие. Наследие веков, 2 (30), 24-46.
11. Xamidova, M. (2024). Methodology for Developing Active Civic Competence in Future Special Educators. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(10), 61-69.
12. Davidov, Y. J. (2023). The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion.
13. Davidov, Y. J. (2022). Ko 'p ma'nolilik hodisasining yuzaga kelish yo'llari. Science and innovation, 1(B2), 500-503.
14. Davidov, Y. J. (2023). Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(6), 947-952.
15. Davidov, Y. (2024). BADIY ASARLARDA KO 'P MA'NOLI SO'ZLARNING QO'LLANILISHI. Modern Science and Research, 3(6).
16. Davidov, Y. (2024). KO'P MA'NOLILIK HODISASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. NRJ, 1(4), 233-236.
17. Muxlisa, O., & Mukhammadiev, A. (2024). Similarities and differences of tense in English and Uzbek languages. Journal of new century innovations, 52(4), 10-16.
18. Yunusova, X. (2024). Ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlash-dolzarb muammo sifatida. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 1(3), 245-248.

